

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

XAMIDOV BEHZOD AXADOVICH

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SHAXS IJTIMOIIY-KASBIY
NOMINATSIYASI KOMPLEMENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING
LINGVOMADANIY TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik,
chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

Xamidov Behzod Axadovich

Ingliz va o‘zbek tillarida shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy tadqiqi 3

Хамидов Бехзод Ахадович

Лингвокультурологическое исследование фразеологических единиц с компонентом социально-профессиональной номинации лица в английском и узбекском языках 25

Xamidov Behzod Axadovich

Linguoculturological study of phraseological units with a component of socio-professional nomination of a person in english and uzbek 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 51

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

XAMIDOV BEHZOD AXADOVICH

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SHAXS IJTIMOYIY-KASBIY
NOMINATSIYASI KOMPLEMENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING
LINGVOMADANIY TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik,
chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi B2023.3.PhD/Fil2311 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Andijon davlat chet tillari instiuti veb-sahifasining (www.adchti.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mamatov Abdimurod Eshonqulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Raupova Laylo Raximovna
filologiya fanlari doktori DSc, professor

Tursunova Nodira Fayzullo qizi
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “___” _____ soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Andijon shahri, Boburshoh ko‘chasi, 5-uy, Tel.:(99874)223-42-76; faks:(99871)223-42-76).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Andijon shahri, Boburshoh ko‘chasi, 5-uy, Tel.:(99874)223-42-76; faks:(99871)223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil “___” _____dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

D. A. Rustamov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
raisi, f.f.d., professor

A. Dj. Ataboyev

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, f.f.f.d.

M. I. Umarxo‘jayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida lisoniy birliklarning nutqiy voqelanishini ilmiy asoslash, til bisotidan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish, qo'llanish doirasini kengaytirish muammolarini tadqiq etishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Sotsiolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika, lingvokognitologiya, lingvokulturologiya kabi zamonaviy fan yo'nalishlari asosida lisoniy imkoniyatlarning amaliy voqelanishini tadqiq etish amalga oshirilmoqda. Tilni mohiyat nuqtai nazaridan o'rganish, tilga kommunikativ, lingvokognitiv yondashish yetakchi o'ringa chiqmoqda. Bu esa mavzuning zamonaviy tilshunoslik bilan bog'liqligini belgilaydi.

Dunyo tilshunosligida frazeologizmlar psixologik, kognitiv-semantik va lingvomadaniy jihatlarni namoyon etgan ko'p qirrali tuzilma sifatida talqin etiladi. Shu ma'noda shaxsning ijtimoiy-kasbiy xususiyatlarini ifodalovchi frazeologizmlarni struktural-semantik, kommunikativ-pragmatik va lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish hamda ilmiy xulosalar chiqarish jahon tilshunosligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ingliz va o'zbek tillarida shaxsning ijtimoiy-kasbiy xususiyatlarini ifodalovchi frazeologizmlarni ochib beradigan hamda lingvomadaniy xususiyatlarni namoyon qiluvchi leksik, paremiologik, idiomatik birliklarning turli diskurslarda qo'llanilishini tahlil qilish bugungi kunda o'ta dolzarbdir. Ingliz va o'zbek tillarida shaxsning ijtimoiy-kasbiy xususiyatlarini ifodalovchi frazeologizmlarning lisoniy voqelanishini struktural-semantik, kommunikativ-pragmatik va lingvomadaniy jihatlardagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash orqali uning lingvomadaniy mazmunini aniqlash nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan, balki o'zbek xalqi va madaniyatlararo muloqot etikasiga oid ko'nikmalarni shakllantirish, o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq lisoniy birliklarni tarjima qilish amaliyotini takomillashtirishi mumkinligi bilan ham dolzarbdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-sonli¹, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli Qarori²; 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli³, 2017-yil 16-fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-sonli Farmonlari⁴; shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Elektron manba: <https://www.lex.uz/docs/3171590>

² Elektron manba: <https://lex.uz/docs/3765586>

³ Elektron manba: <https://lex.uz/docs/4545884>

⁴ Elektron manba: <https://lex.uz/docs/3119699>

Tadqiqot respublika fan texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublikamizning fan va texnologiyalar rivojlanishi “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq tarzda Andijon davlat chet tillari instituti “Frazeografik va leksikografik lug‘atshunoslik” doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Til tizimi va frazeologizmlarni o‘rganishga lingvomadaniy yondashuv, ularning nazariy tadqiqiga bag‘ishlangan talqinlar xorijlik olimlardan V.fon Humboldt, D’Arcy Adrian-Vallance, Richard AюSpears, SinclairюJ, A.Redford⁵, rus olimlaridan N.N.Amosova, A.V.Kunin, A.M.Babkin, L.A.Shkatova, O.S.Axmanova, R.A.Budagov, V.N.Teliya⁶, vatanimiz olimlari orasida o‘z ilmiy ishlarini til va madaniyatning o‘zaro aloqasiga bag‘ishlagan quyidagi tilshunoslarning nomlarini tilga olish mumkin: M.E.Umarxo‘jayev, A.E.Mamatov, Sh.Raxmatullaev, N.Mahmudov, Sh.S.Safarov, A.E.Mamatov, G‘.M.Hoshimov, B.Yo‘ldoshev, L.Boboxonova⁷ va boshqa tilshunoslarning ilmiy ishlarida keng qo‘llangan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Ingliz tili amaliyoti kafedrasida “Lingvistika va xorijiy tillarni o‘qitish samaradorligini oshirishning nazariyasi va amaliyoti” mavzusida olib borilayotgan istiqbolli ilmiy tadqiqot ishlari rejasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli frazeologizmlarning struktural-semantik va lingvomadaniy xususiyatlarining umumiy va farqli jihatlarini ochib berishdan iborat.

⁵ Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – М.: 1985./Humbolt W. On Language: On the Diversity of Human Language Construction and its Influence on the Mental Development of the Human Species/ Losonsky M.Ed. – Cambridge, UK:Cambridge University Press,1999. – 296 p. /D’Arcy Adrian-Vallance. Really useful English Idioms.Essex England: 2001/ Richard A Spears. Thematic Dictionary of American Idioms. NTC Publishing Group. 1997. /Adger, D. (2004). Core Syntax: A minimalist approach oxford. – New York: Oxford University Press./ Berk, L.M. (1999). English syntax: From word to discourse. Oxford: Oxford University Press./ Radford, A. (2009). An Introduction to English sentence structure. Cambridge University Press./Sinclair, J. Beginning the study of lexis. In C. Bazell, J. Catford, M. Halliday, & R. Robins (Eds.), In Memory of J.R.Firth – London: Longman, 1966. – P.410-430.

⁶ Амосова Н.Н. Этимологические основы словарного состава английского языка. – М.: 1956/ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка, уч. пособие, 2 издание. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 381/ Бабкин А.М. Лексикографическая разработка русской фразеологии. – М.: 1964. /Шкатова Л.А. Толкование лексических значений названий разных лиц по профессии. – Л.: 1976/Ахманова О.С. Основные направления в социолингвистике. – М.: 1971/ Будагов Р.А. Филология и культура. – М.:1980. /Телия В.Н. Вторичная номинация и ее виды. – В кн.:Языковая номинация (Виды наименований). – М.: Наука. 1977.

⁷ Умархўжаев М.Э. Чоғиштирма тилшунослик ва таржимашуносликнинг долзарб муаммолари ҳақида // Тил илми уммонига қўшилган томчи. – Тошкент: 2013. – 255б. /Умарходжаев М.Э. Основы фразеологии. – Ташкент: “Фан”, 1983. – 136 с./Раҳматулаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1978./ Сафаров Ш. Тил назарияси ва лингвометодология. Монография. – Тошкент: 2015./ Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: 1991./ Нурмонов А., Махмудов Н. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: 2007./Hoshimov.G.M. The Theory of the Modern English Grammar. Part two. – Andizhan: 2014./ Б.Йўлдошев. Ўзбек фразеологияси ва фразеологиясининг шаклланиши ҳамда таракқиёти. Монография. – Самарқанд: 2013. – 116 б.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

tilshunoslikda frazeologik birliklar ta'rifini va tasnifini, shakllanishi va lug'at tarkibiga kiritilishi, ularning boshqa frazeologik birliklar bilan bog'liq va farqli jihatlarini ochib berish;

hozirgi zamon tilshunosligida shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli frazeologik birliklarga turli yondashuvlar asosida ishning dolzarbligini asoslab berish;

hozirgi zamon tilshunosligida shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli frazeologik birliklar tasnifiga yondashuvlarni tahlil qilish, ingliz va o'zbek tillaridagi shaxsning ijtimoiy-kasbiy xususiyatlarini ifodalovchi komponentga ega frazeologik birliklarning kommunikativ-pragmatik va lingvomadaniy jihatlarini ochib berish;

ingliz va o'zbek tillaridagi shaxsning ijtimoiy-kasbiy xususiyatlarini ifodalovchi komponentga ega frazeologik birliklarning nazariy va amaliy tarjimai uchun tegishli tavsiyalar berish;

Tadqiqotning ob'yektini turli tizimli tillarda shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli frazeologik birliklarning zamonaviy diskurslarda aks etgan lingvomadaniy va lingvopragmatik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tillarida shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli frazeologik birliklarni lisona ifodalovchi leksik va sintaktik vositalar hamda ularning o'ziga xos jihatlarini tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda distributiv, chog'ishtirma, kontekstual, lingvostatistik, interpretatsiya, transformatsiya va pragmatik tahlil metodlaridan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

ingliz va o'zbek tillarida shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli (o'zbek tilida, *Bo'zchi belboqqa yolchimas*, ingliz tilida, *to live like a lord* kabi) frazeologik birliklarni lisona voqelantiruvchi leksik va sintaktik vositalarning semantik, kommunikativ xususiyatlari ochib berilgan;

chog'ishtirilayotgan tillarda shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli frazeologik birliklarning shakllanishi jarayonida lingvomadaniy o'ziga xoslik (frazeologizmlar uchun komponent sifatida tanlangan so'zlar: *driver's seat* (ingliz tilida), *bo'zchi belboqqa yolchimas* (o'zbek tilida) kabilar)ning ta'sir ko'lamini dalillangan;

ingliz va o'zbek tillarida shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy jihatlari uslubiy vositalar (metafora, metonimiya, oksyumoron, ironiya, giperbola kabi) kesimida dalillangan;

ingliz va o'zbek tillarida shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli frazeologik birliklarda lingvomadaniy omillarning aks ettirilishi va ular bilan bog'liq tarjima jarayonida yuzaga chiquvchi (ingliz tilidagi ma'lum birliklarning o'zbek tilida mos muqobil varianti mavjud emasligi, so'zma-so'z tarjima qilish imkonsizligi kabi) muammolar aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida umumiy, chog'ishtirma, kognitiv tilshunoslik, ingliz va o'zbek tilshunosligining frazeologiya bo'limi bo'yicha darsliklar yaratish

hamda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarida foydalanish uchun materiallar to'plandi;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda qilingan ma'ruzalar, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallarda chop etiladigan maqolalar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o'zbek tillarida shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli frazeologik birliklarning umumiy va xususiy jihatlari tahliliga oid nazariy xulosalardan pragmatolingvistika, sotsiolingvistika, lingvomadaniyat-shunoslik sohalariga oid ishlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan tarjima nazariyasi, kognitiv tilshunoslik, ingliz tili fanlaridan o'quv qo'llanma yaratishda, tarjimonlarning kasbiy va amaliy faoliyatida, shuningdek, reklama matnlarining ta'sir doirasini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek tillarida shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

ingliz va o'zbek tillarida ijtimoiy-kasbiy nominatsiya komponentli frazeologizmlarning o'ziga xosliklarni chog'ishtirib aniqlash, lug'atlarning turli ko'rinishlarida tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari talqinlarida kuzatish, turli lingvomadaniyat vakillarining kommunikativ samaradorligini ta'minlash borasidagi qarashlarni shakllantirish borasidagi xulosalardan Samarqand davlat Chet tillar institutida bajarilgan 2016-2018 yillarga mo'ljallangan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+SVNEIMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" doirasidagi loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 18-apreldagi 1010/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli frazeologizmlarning xususiyatlarini o'rganish hamda lingvomadaniy va lingvopragmatik talqinlarning ilmiy ta'minoti mukammallashtirilgan;

tadqiqotga tortilgan materiallarning yosh avlodni o'qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida, virtual resurslar yaratishda lingvomadaniy manba bo'lib xizmat qilishi, shuningdek, ingliz tilida shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli frazeologizmlarni tizimlashtirish, ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish (masalan, elektron lug'atlar) va o'quv jarayoniga joriy etishning nazariy asoslari, ularning to'g'ri tarjima qilinishining umumiy va xususiylik masalalariga oid xulosa va umumlashtirilgan fikrlardan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan 2014-2015 yillarga mo'ljallangan I-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" mavzusidagi

fundamental loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillari institutining 2023-yil 18-apreldagi 1011/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli frazeologizmlarning sistemaviy xususiyatlarini o'rganish hamda til birligi sifatida pragmatik xususiyatlarining yuzaga chiqishiga doir masalalarni ochib berishga erishilgan;

tadqiqotga tortilgan shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli frazeologizmlar orqali ijtimoiy muloqot, millat madaniyatini tushunish, shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasini ifodalovchi komponentga ega frazeologizmlarning lingvopragmatik jihatdan tadqiqi, ikki yoki undan ortiq xalqning o'zaro birlarining madaniyati, mentaliteti, e'tiqodi, an'analari, qadriyatlarini kengroq anglash nafaqat so'zlovchiga, balki tinglovchiga nisbatan ham ta'sir ko'rsatishi haqidagi tahliliy fikrlar va nazariy xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradiokanali DUK "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyati tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "Bolalar va biz" nomli eshittirishlarda 2021-2022 yillar davomida foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat unitar korxonasi 2023 yil 9 yanvar 04-36-36-son ma'lumotnomasi). Natijada shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy talqinlarining ilmiy ta'minotini yoritib borish kabi amaliyotlarda muhim manba bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3ta respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashqari 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, shuningdek tadqiqotning ob'yekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqot ishining O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiliklar va tadqiqotning amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarni joriy qilish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Birinchi bob "**Zamonaviy tilshunoslikda frazeologizmlar taraqqiyotining nazariy asoslari**" deb nomlangan bo'lib, frazeologizmlarning o'rganilishi va frazeologik birliklarning zamonaviy ingliz va o'zbek tillaridagi umumiy struktural-semantik xususiyatlari kabi masalalarni yoritishga bag'ishlandi.

Ma'lumki, tillarda turli konseptlar va tushunchalarni to'laqonli aks ettirish va keng semantik xususiyatlarni qo'shgan holda ifodalashda frazeologik birliklar (keyingi o'rinlarda FB deb yuritiladi) katta ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda frazeologiya sohasi nisbatan kechroq paydo bo'lishiga qaramay, tilning tizimli o'rganilishi, birliklarning kognitiv-semantik, semantik maydon va etimologik jihatlarini aniqlashda ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Frazeologiya nazariyasining shakllanishida fransuz olimi Sh.Ballining hissasi beqiyos ekanligi ko'pchilik olimlar tomonidan e'tirof etiladi. Binobarin, "Fransuz tili stilistikasi" kitobidan o'rin olgan alohida bob frazeologiyaning tadqiqot birliklari, ularning definitsiyasi, maqsadi va yo'nalishlarini belgilab bergan ilk asardir.⁸

Frazeologik nominatsiyalarning murakkabligini o'rganish jarayonida A.V.Kunin ularni so'zga tenglashtirilgan holda tahlil qilishda, birikmalarning o'zaro bog'lanishlarida ma'lum farqli jihatlar borligiga urg'u berib, FBlar mazmunan boy, qurilishi va konnotatsiyasiga ko'ra turli tuman ekanligini ta'kidlagan edi.⁹

Odatda, frazeologizmning ma'nosi bir leksema ma'nosiga teng deyiladi. Biroq hech qachon ular teng emas. Chunki, frazeologizm va leksema ma'nosi teng bo'lsa edi, unda frazeologizm ortiqcha bo'lib qolar edi. Misol sifatida "*og'zini poylamoq*" frazeologizmi bilan "*kutib turmoq*" leksemasining ma'nolarini qiyoslab ko'raylik. Mazkur frazeologizm "biror gap aytishiga ilhaq bo'lib kutmoq" bo'lsa, "*kutib turmoq*" leksemasi "biror narsa aytishini kutmoq" sememasiga ega. Har ikkala ma'noda ham birikma kishi ichki ruhiy holati (denotat) aks etgan. Biroq frazeologizm ma'nosida "*intizorlik bilan, ilhaq bo'lib kutmoq*" va "*so'zlashuv uslubiga xos*", "bo'yoqdor" semalariga egaligi bilan "*kutib turmoq*" leksemasidan farqlanadi. Demak, frazeologizmning ko'pincha, ifoda semalarida obrazlilik, bo'yoqdorlik bo'rtib turadi. Umuman olganda, frazeologik ma'no torroq va muayyanroq, leksema ma'nosi esa unga nisbatan kengroq va mavhumroq bo'ladi. Ko'rinadiki, frazeologizm va leksema bir narsa yoki hodisani atasada (atash semalari bir xil bo'lsa-da), ifoda semalari turlicha bo'ladi.

A.V.Kuninning fikricha frazeologik nominatsiyalarning o'ziga xos jihatlaridan yana biri bu – uchlamchi nominatsiya hosil qilishlaridir. Bunga ko'ra ikkilamchi ma'no asosida hosil bo'lgan frazeologik birliklar butun bir birikma holda yana bir boshqa frazeologik birliklarni hosil qilishlari mumkin bo'lib, ular yangi derivatlar, determinant ma'nolar va frazeologik prototiplarga aylanishlari mumkin bo'ladi.¹⁰

Frazeologizmlar tarkibdagi ayrim so'zning ko'chma ma'noda, boshqalarining o'z ma'nosida qo'llanilishi natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, "sirkasi suv ko'tarmoq (ovqatlanish)", "nog'orasiga o'ynatmoq (musiqqa)" frazeologizmlarida "sirka", "nog'ora" so'zlari o'z ma'nosida, "ko'tarmoq", "o'ynatmoq" so'zlari ko'chma ma'noda. Ba'zan, harakat-holatning natijasini ifodalovchi qurilma frazeologizmga aylanadi. Masalan, kishi afsuslanishi natijasida barmog'ini tishlab qolishi mumkin. Shuning uchun *barmog'ini tishlab qolmoq*

⁸ Гак В.Г. Языковые преобразования. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1998. – С. 8

⁹ Кунин А.В. Основные понятия фразеологии как лингвистической дисциплины и создание англо-русского фразеологического словаря. Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – М.: 1964. – С. 20

¹⁰ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка, уч. пособие, 2 издание. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 130

qurilmasi frazeologik qiymat kasb etgan. Ayrim frazeologizmlar turli diniy aqida, tushuncha va rivoyatlar asosida ham shakllanadi: —*Uning eriga mening ko‘zim tekkan emish.* (I.Rahim)

Polisemantiklik hodisasi frazeologizmda ham ko‘p kuzatiladi. Masalan, “*aqli yetadi*” frazeologizmi “*idrok qilmoq*”, “*ishonch hosil qilmoq*” ma’nosiga, ega. Frazeologik polisemiyada barcha ma’no ko‘chma bo‘lganligi bois, ularni bosh va hosila ma’nolarga ajratish qiyin.

Bir so‘z bilan aytganda, frazeologik nominatsiya mazmunida frazeologik yangi ma’no berish hodisasi aks etadi. Yangi ma’no berish ifodalanayotgan ob’yektning real borliqdagi va kishilar ongidagi belgilarini va ular o‘rtasidagi aloqani anglash jarayoni hisoblanadi. Yangi ma’no berish usuli FB mazmunidagi ikkilamchi yoki uchlamchi nomlash orqali hosil qilingan ifoda denotat prototiplarni bevosita FB yoki frazeosemantik variantga ko‘chirishda o‘z aksini topadi.¹¹

Bunday ma’no ko‘chirishlarda metafora va metonimiya alohida o‘rin egallaydi. Bunda, o‘xshatishga asos bo‘layotgan xususiyat kishilarning ob’yektni o‘z tushunchasi yoki situatsiya va kontekstdagi o‘xshashligini anglash orqali yangi ma’no shakllanishiga sharoit yaratadi.¹²

Bundan xulosa qiladigan bo‘lsak, quyidagi lisoniy jihatlarni frazeologik birliklarning o‘ziga xos belgilari sifatida qabul qilishimiz mumkin:

- semantik jihatdan o‘ta bo‘yoqdorligi, bunda frazeologik birliklar boshqa bir birikmaga to‘liq sinonim bo‘lib qolishlari kuzatiladi. Masalan: ingliz tilidagi “*to throw dust into smb. ’s eyes*” frazeologik birikmasi struktural komponentlariga ko‘ra tubdan farqlanuvchi boshqa “*to be narrow in the shoulders, to burn one’s fingers, to burn bridges*” kabi birikmalarga sinonimik munosabatda bo‘ladilar;

- FB tarkibidagi ayrim elementlar o‘z semantik ifodalarini saqlab qolishlari mumkin. *to put a spoke in smb. ’s wheel*;

- FB tarkibidagi komponentlarni boshqa so‘zlar bilan almashtirish imkoni yo‘qligi “*to hold one’s cards close to one’s chest*”;

- FB da emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlikning ustunligi “*to throw dust into smb. ’s eyes, to paint the devil blacker than he is*;

- FB larning alohida so‘z va iboralargi sinonimik munosabatda bo‘lishi: *to gild refined gold = to paint the lily*.

So‘z birikmasi bu doimiy yaxlit iboralar bo‘lib, ular erkin yoki frazeologik bog‘langan so‘zlardan tarkib topadi. Jumladan, ingliz tilidagi *a bosom friend – qadrdon do‘st, a pitched battle – shiddatli jang, a Sisyphean labor – foydasiz, og‘ir, qiyin ish* va hakazo.

Frazeologik birlik va chatishmalardan farqli holda, so‘z birikmasi “ma’noviy bo‘laklarga ajralishi” bilan farqlanadi.¹³ Shunga ko‘ra, ular erkin so‘z birikmalariga yaqin turadi.

¹¹ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Уч. пособие, 2 издание. – М.: Высшая школа, 1996. – С. 132-133.

¹² Свионтковская С.В. Функции зооморфизмов в формировании прагматического потенциала художественного текста (на материале испанского и английского языка). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Пятигорск: 2000. – С. 13

¹³ Черемисина М.И. Экспрессивный фонд и пути его изучения // Актуальные проблемы лексикологии и словообразования. Сб. науч. статей. – Новосибирск: 1979. – С. 75.

Soʻz birikmalari oʻz navbatida quyidagi lisoniy belgilarga ega boʻladilar.

- bu birikmalarda maʼlum komponentlar boshqa soʻzlar bilan erkin almashinishi mumkin boʻladi. Masalan, “*a bosom friend*” va “*a bosom buddy*” birikmalarida semantik farq kuzatilmaydi va ikkala holda ham “*qadr don doʻst*” maʼnosini anglatadi.

- komponentlar oʻzaro oʻrin almashinishi mumkin, masalan “*a Sisyfean labor*” birikmasi ayrim hollarda “*a labor of Sisyphus*” shaklida qoʻllanilishi ham mumkin.

- birikma tarkibidagi faqat bir komponent erkin boʻlib, boshqasi domiy tarkibda boʻlishi lozim. Masalan, ingliz tilidagi “*a bosom friend*” birikmasida faqatgina “*bosom*” erkin boʻlib, “*doʻst*” oʻrnida “*dushman*” yoki boshqa soʻz qoʻllanilishi birikma semantikasiga jiddiy taʼsir koʻrsatadi.

Tasviriylikni frazeologik birikmalarning yasalishi va tasnifida asosiy belgisi sifatida tahlil qilgan N.M.Shanskiy tasnifiga tayangan holda V.V.Vinogradov klassifikatsiyani rivojlantirgan holda unga qoʻshimcha yana bir tipni ham qoʻshgan edi. Bu tip “*obrazli ifoda (фразеологическая выражения)*” atamasi bilan nomlanib, boshqa turdagi birikmalardan oʻz semantikasi bilan ajralib turgan. “*Obrazli ifoda*”lar “*erkin nominativ maʼno va semantik ajraluvchi*” butunlay erkin soʻzlardan tashkil topgan birikmalar sifatida tahlil qilingan. Ular nutq jarayonida tayyor birikma holida va doimiy aynan bir semantik ifoda shaklida qoʻllanilishi va aksariyat hollarda oʻz asliy maʼnolari asosiga qurilishi taʼkidlab oʻtilgan. Bunga misol qilib tillardagi asliy va allegorik maʼnoda qoʻllaniluvchi maqol, matallar, kalima va iboralar keltirilgan. Jumladan, olim ingliz tilidagi *Better untaught than ill taught – chalasavod olim boʻlgandan koʻra savodsiz omi boʻlgan afzal; many men, many mind – har kallada har hayol.*¹⁴

Koʻp hollarda, turli tillardagi “*obrazli ifoda*”lar semantikasi aynan oʻxshash boʻlishiga qaramay, ularning tarkibidagi soʻzlar bir –birlaridan tubdan farq qilishlari ularning mazmunida lingvomadaniy xususiyatlar va soʻzlovchilarning olam manzarasiga boʻlgan munosabati yaqqol sezilishi bilan frazeologik birikmalar kategoriyasiga taalluqli ekanini koʻramiz.

Ammo, bizning fikrimizcha, frazeologizmlarni soʻzga tenglashtiruvchi qarashlar toʻgʻri boʻlmay, ular mazmunidagi oʻziga xos semantikani, emotsional-ekspressivlik va kontekstual qoʻllanilish tamoman inkor etadi. Frazeologizmlar maʼnosi leksemaga teng boʻlsada, ularni toʻliq sinonim deb boʻlmaydi, turli kontekstlarda erkin almashtirish imkoni boʻlmaydi. Qolaversa, har qanday frazeologizm bu – soʻz emas, balki grammatik qoidalar asosida munosabatga kirishuvchi soʻzlar birikmasi boʻlib, aksariyat hollarda yaxlit struktura, ajralmas qismlardan iborat boʻlishi va doimiy bir tarkibli boʻlishi bilan xarakterlanadi. Shu oʻrinda, tilshunos olim A.E.Mamatovning quyidagi fikrlari masalaning mohiyatini yana ham oydinlashtiradi: “...frazeologiyani “*keng*” va “*tor*” maʼnoda tushunish notoʻgʻri, uni bitta maʼnoda tushunish kerak. Ular qanday til birliklari deb tasnif qilinishidan qatʼiy nazar, aforizmmi, maqol yoki matalmi, turgʻun soʻzlashuv formulalarimi, “*qanotli soʻzlar*”mi, xullas, agar ular frazeologizmning biz bergan

¹⁴ Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – М.: “Русский язык”, 1984. – С.354

ta'rifiga mos tushsa, undagi talablarni bajara olsa, ya'ni tuzilishi jihatidan so'z birikmasiga yoki gapga teng bo'lgan, obrazli, umumlashgan ma'no anglatadigan, leksik elementlari qisman yoki to'liqko'chma ma'noga ega bo'lgan, lug'atlarda qayd etilgan har qanday turg'un leksik-semantik birliklar frazeologik birliklar doirasiga kiritilishi shart".¹⁵

Ikkinchi bob **“Shaxs ijtimoiy– kasbiy nominatsiyasi tilning lug‘at tarkibi va frazeologik birliklar komponenti sifatida”** deb nomlanib, mavzu quyidagi: shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi semantikasining ijtimoiy asoslanganligi; ingliz va o'zbek tillaridagi shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli frazeologizmlarning lokal bo'yoqdorligi; frazeologik birliklar tarkibida shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasining lingvistik tavsifi va grammatik xususiyatlari; frazeologik birliklar tarkibidagi shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasining etimologik tavsifi; til leksik tarkibdagi shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli frazeologik birliklarning struktural-stilistik jihatlar va frazeologizatsiyaga olib keluvchi ekstralingvistik omillar; ingliz va o'zbek tillarida ijtimoiy mavqei va kasbiy belgilariga ko'ra shaxs nominatsiyasi komponentli frazeologik birliklarning stilistik tadqiqi kabi mavzular ko'lamida o'rganib, tadqiq etishga erishildi.

FBlar grammatik jihatlarini tahlil qilishda gender yoki rod kategoriyasiga bog'liq belgilari alohida o'rin egallaydi. Biroq qiyoslanayotgan tillardagi tadqiq etilayotgan FB tarkibiga kiruvchi shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi uchun gender kategoriyasiga bog'liq juftlari mavjud emas. Bu borada “ijtimoiy mavqeiga” ko'ra nomlovchi shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyali FBlar alohida o'rin egallaydi. Masalan, ingliz tilidagi *“king-queen”* juftligi qo'llangan *“The king can do no wrong* (Qirol xato qilishi mumkin emas)” va *“Queen Ann is dead* (Bunga ko'p bo'ldi! Qancha suvlar oqib ketdi)” kabi Fblar tarkibida qo'llanilishida grammatik rod kategoriyasi ifodalarini kuzatishimiz mumkin. O'zbek tilida “Ota-aql, ona idrok”, “Er-xotinning urushi-doka-ro'molning qurishi”.

Frazeologik jihatdan juda faol bo'lgan ingliz tilidagi shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasini tadqiq etish jarayonida, ularning etimologik xususiyatlarini tahlil qilish orqali shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyalar mazmunida qo'llanilayotgan komponentlarning aksariyati german tillari uchun umumiy ekanligi aniqlandi.

Tadqiq uchun tanlab olingan til materiallariga ko'ra, aksariyat shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasiga ega leksik birliklar qadim zamonlardanoq yaratilganligini ko'rsatadi. Jumladan, aksariyat shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasiga ega birikmalar umumiy Hind-Yevropa manbasi yoki aynan german tillari guruhidan kelib chiqqan so'zlar bo'lib, ingliz tili leksik qatlamidan muqim o'rin egallagan, masalan: *alderman* (shahar boshqarmasi a'zosi), *baker* (novvoy), *cowboy* (molboqar, podachi), *driver* (haydovchi), *fiddler* (g'ijjakchi, skripkachi), *fisher* (baliqchi (*og'z. nutqda, she'r.*)), *fishwife* (qo'pol, janjalkash ayol), *tinker* (tunukachi). Bu so'zlar bizning davrimizga qadar saqlanib qolgan leksik qatlamga

¹⁵ Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек тилида лeксик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: “Фан”, 1991. – 274 б.

tegishlidir.¹⁶ Bundan tashqari, ingliz tilida fransuz tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlarda ham o‘ziga xos semantik xususiyatlarga egalik kuzatiladi. Ma’lumki, fransuz tilidan ingliz tiliga feodal iyerarxiya va davlat boshqaruvi, yustitsiya va sud ishi, harbiy ishlar, turli hunarlarga taalluqli ko‘plab nomlar kirib kelgan.¹⁷ Jumladan, *advocate* (advokat, himoyachi, ovlovchi), *apprentice* (o‘quvchi, shogird), *artist* (musavvir), *carpenter* (duradgor), *clerk* (xizmatchi), *barber* (sartarosh), *digger* (go‘rkov), *duke* (gersog), *butcher* (qassob), *cobbler* (etikdo‘z), *emperor* (imperator), *friar* (rohib).

Ingliz tilining fransuz va lotin madaniyati bilan aloqasi qadimgi va o‘rta asrlar davrlariga xos bo‘lganligi sababli, uzoq diaxronik taraqqiyotni boshidan kechirgan. Bunday o‘zlashgan so‘zlarga ega shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyali FBlar ingliz tili lug‘at tarkibiga maksimal darajada singib ketgan va hozirda lug‘at tarkibining ajralmas qismi hisoblanadi. N.N. Amosovning atamasiga ko‘ra ular, “qadimiy hosila” so‘zlar bo‘lib, ularning boshqa tilga tegishli ekanligi aslo sezilmas darajada kelgan. Chunonchi, ular ingliz tilining odatiy leksikasidan umuman farqlanmaydi va ingliz tili tarkibidan mustahkam joy egallagan.¹⁸

O‘zbek tilida shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi, asosan, qadimda paydo bo‘lgan (umumturkiy, qadimgi o‘zbek tili) so‘zlari yordamida shakllangan:

O‘zbek tilining ham boshqa til va madaniyatlar bilan o‘zaro aloqasi sababli yuzaga kelgan shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyali FBlar qadim zamonlardan oq shakllana borgan. O‘zlashma so‘zlar manbasi sifatida arab, fors, mo‘g‘ul va boshqa qator tillardan o‘zlashgan so‘zlar alohida o‘rin egallaydi. Masalan: arab tilidan: *mudarris*, *arbob*, *talaba*, *munshiy*, fors tilidan: *qalandar*, *tanobchi*, *meshkobchi*, *baqqol*, *mulla*.

O‘zbek tilida FB tarkibiga kiruvchi shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasida etimologik xususiyatlariga ko‘ra asl o‘zbek tiliga oid leksikadan ko‘ra boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar ko‘p qo‘llaniladi. Qiyoslanayotgan tillar uchun umumiy bo‘lgan jihatlar, birinchidan, FB tarkibiga kiruvchi o‘zlashgan shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyali frazeologizmlar “qadimgi hosilalar” ekanligidir. Bu o‘z navbatida shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasining frazeologik birliklar hosil qilishdagi faollik darajasi ularning etimologik xususiyatlariga ham tegishli ekanligi soha bo‘yicha tadqiqotlar olib borilishiga qiziqish uyg‘otadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi tarixan kelib chiqqan shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyalarning frazeologik birlik hosil qilish imkoniyatlari kuchlidir.

Masalan,

- jismoniy mehnat sohasida kasbiga ko‘ra shaxs nomlanishi – ingliz tilida, *hunter* (ovchi), *miller* (tegirmonchi), *tinker* (tunukachi), o‘zbek tilidagi – *bo‘zchi*, *qo‘shchi*, *meshkobchi*, *cho‘pon*;

- aqliy mehnat sohasida kasbiga ko‘ra shaxs nomlanishi – ingliz tilida, *fiddler* (g‘ijjakchi, skripkachi), *piper* (naychi); o‘zbek tilida – *mulla*, *arbob*, *mudarris*, *munshiy*;

¹⁶ Амосова Н.Н. Этимологические основы словарного состава английского языка. – М.: 1956. – С. 7.

¹⁷ Ильиш Б.А. История английского языка. Изд.5, испр и доп. – М.: Высшая школа. 1968. – С.140.

¹⁸ Амосова Н.Н. Этимологические основы словарного состава английского языка. – М.: 1956. – С. 76.

-harbiy sohada kasbiga ko'ra shaxs nomlanishi – ingliz tilida, *sailor* (dengizchi); o'zbek tilida – *sarkor, qo'rchi, to'fangdor*. Mavqeyiga ko'ra shaxs nomlanishi – ingliz tilida, *Gentleman* (janob), *lady* (xonim), *lord* (lord), *thief* (o'g'ri); o'zbek tilida – *aka, taqsir, hazrat, janob, o'g'ri*;

-mansabiga ko'ra shaxslarni nomlash – ingliz tilida, *King* (qirol), *queen* (qirolicha), *knight* (ritsar); o'zbek tilida – *boy, kambag'al, xon, malika, bek, begoyim, to'ra, mingboshi, qarol, sardor*.

Etimologik shakllanishiga ko'ra shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi bilan bir qatorda o'zlashgan shaxs ijtimoiy-kasbiy nominatsiyasi komponentli frazeologik birliklarda sezilarli darajada keng qo'llaniladi. Jumladan, ingliz tilida – lotincha so'zlar: *prince* (shahzoda), *soldier* (askar), *captain* (kapitan), *cook* (oshpaz); fransuz tilidan o'zlashgan so'zlar: *tailor* (tikuvchi), *politician* (siyosatchi), *servant* (xizmatkor). O'zbek tilida fors tiliga bog'liq *meshkobchi, darboz, qo'rchi, dodhoh* kabi FBlarda o'z aksini topgan.

Frazeologizatsiyalashuv natijasida barcha FBning stilistik mazmuni bog'liq ravishda FB komponentlarining stilistik qayta xoslanish hodisasi sodir bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi stilistik jihatdan neytral bo'lgan *actress, bishop* leksik birliklari FB tarkibiga kiradi- *as the actress said to the bishop* – (coll. so'zlashuv) (“aktrisa yepiskopga aytganidek” og'zaki nutqda jinsiy ma'noga ega bo'lmagan, biroq shunday ma'no bor deya tushunilishi mumkin bo'lgan kalimaga nisbatan, e'tiborni tortish uchun qo'llaniladi).

Uchinchi bob **“Frazeologik birliklarda lingvomadaniy omillar va ularning tarjimada aks ettirilishi masalasi”** deb nomlangan bo'lib, frazeologik birliklarning tarjimasida qo'llaniladigan transformatsiyalar va kasbiy nominatsiya komponentli frazeologik birliklarning tarjima muammolari va unda lingvomadaniy omillarning aks ettirilishi mavzulari orqali tahlil qilindi.

O'zbek tilining frazeologik boyligi haligacha to'liq to'planmagan. Frazeologizmlar lingvomadaniy jihatdan deyarli o'rganilmagan.

Kasbiy nominatsiyalarga ega komponentli FBlar tilshunoslikning frazeologiya va terminologiya bo'limlari orasidagi lingvistik hodisadir. Qolaversa, kasbiy nominatsiya komponentli FBlarda milliy-madaniy xususiyatlarning namoyon bo'lishi terminologiya va frazeologiyaning lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatib turadi. Shuning uchun, ingliz va o'zbek tillaridagi kasbiy nominatsiyani anglatuvchi komponentlarga ega FBlarni yagona tizimga solib, maxsus tadqiq qilish, ularning etimologiyasi, tarkibi, semantikasini ochib berish va tasnifini yaratish tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Qardosh bo'lmagan ikki til doirasida milliy bo'yoqdor FBlarning mental xususiyatlarini o'rganib, ularning tarjimada berilishida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash uchun frazeologiya, onomastika, lingvomadaniyatshunoslik va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan tekshirish kerak bo'ladi.

Turg'un birikmalarda esa birlikning ma'nosi mos kelsada, tarkibidagi hech bo'lmaganda bir komponentning ko'chma ma'noda qo'llanilishi o'ziga xos xususiyat sanaladi. Turg'un birikmalar semantikasida ichki shakl ustuvor bo'lib, obrazli ifodalar deyarli kuzatilmasligi va milliy xususiyatlarga ega bo'lmashligi

sababli oson anglashilishi mumkin. Shunga ko‘ra, turg‘un birikmalar semalari odatiy so‘zlarning lug‘at tarkibidagi ma‘nolari yordamida tegishli stilistik bo‘yoqlarini saqlab qolgan holda tarjima qilinishi mumkin.

O‘z navbatida frazeologizmlar semantikasining tarjima jarayonida tildan-tilga to‘laqonli o‘girilishi tarjimonlar oldiga qo‘yiladigan eng mushkul vazifalardan biridir. Bu ko‘plab, ham lisoniy ham tildan tashqaridagi omillar mavjudligi sababli yuzaga keladi.

Birinchidan, frazeologik birlik tarkibiga qo‘shilib, uning komponentiga aylangan har bir so‘z o‘z leksik ma‘nosini yo‘qotib, yangi ko‘chma ma‘no olishlari bo‘lib, asliy leksik sema vaqtlar davomida tildan yo‘qolib ketadi va semantik ifodani ularning komponentlari ma‘nosi asosida aniqlab bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, chet tilidagi frazeologizmlarning ma‘nosi bilan tanish bo‘lmagan tarjimonlar ularni kalkalash orqali o‘girishi va kontekstdagi semantikaning o‘zgarishiga va o‘quvchilar tomonidan matnning noto‘g‘ri talqin qilinishiga sabab bo‘ladi.

Uchinchidan, ko‘p holatlarda original va tarjima tili o‘rtasida frazeologik birlikning mos ekvivalenti topilgan taqdirda ham ularni kontekstga moslash uchun uslubiy va obrazli to‘g‘ri keluvchi boshqa variantini topish zarurati paydo bo‘ladi. Bunda tarjimon frazeologik birliklarning baholovchi, funksional uslubiy, emotsional-ekspressiv konnotatsiyalarini ham moslashtirishga majbur bo‘ladi. Qolaversa, turli tillardagi ayni bir qurilishga ega frazeologik birliklar milliy o‘ziga xosliklar, noto‘g‘ri assotsatsiyalar va so‘zlashuvchilarning kognitiv-konseptual qarashlaridagi farqlanishlar sababli tamoman boshqa semalarni va ifodalarni aks ettirishlari va natijada noto‘g‘ri tarjimaga sabab bo‘lishlari ham mumkin.

Tarjima jarayoniga oid yuqorida tilga olingan muammolarni kengroq tahlil qilish maqsadida ushbu bobda frazeologik birliklarning tildan-tilga tarjimalarida qo‘llaniladigan usullarga alohida to‘xtalib o‘tamiz. Bu borada eng ko‘p qo‘llaniladigan usul bu **ekvivalent tanlashdir**, ya‘ni bir tildagi frazeologik birlik mazmunida ifodalanayotgan ma‘no yoki ko‘chma semani boshqa tildagi xuddi shu semani ifodalovchi boshqa frazeologik birlik orqali almashtirishdan iborat bo‘ladi. Ekvivalent tarjima usulini tadqiq qilgan olimlar uni shartli ravishda ikkiga: to‘liq va qisman turlarga ajratganlar.¹⁹ To‘liq ekvivalentlar ham struktural ham semantik jihatlariga ko‘ra aynan bir xil bo‘lsalar, qisman ekvivalentlar ifoda plani, ya‘ni komponentlari bilan farqlanishlari mumkin. Jumladan, ingliz tilidagi “*as poor as a church mouse*” frazeologizmi birikmasi “*sichqonlar hassa tayanib yuribdi*”. *Strike the iron while it is hot. Temirni qizig‘ida bosmoq.*

Bu frazeologizm tarjimasida tarjimon to‘liq ekvivalent tarjimadan foydalandi. Bu ikkala frazeologik birliklar ingliz va o‘zbek tillarida aynan bir xil struktural-kompozitsion, semantik va funksional stilistik xususiyatlarga ega.

Yana bir samarali usul bu – **analog tanlash** hisoblanadi. Aksariyat hollarda frazeologik birliklarning ekvivalentlari mavjud bo‘lmaydi. Analogik tarjima frazeologizm mazmunidagi semani boshqa tilda xuddi shu ma‘noni anglatuvchi

¹⁹ Виноградов В.С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). Учебное пособие / В.С. Виноградов. – М.: Издательство института общего среднего образования РАО, 2001. — 224 с.

birikma tarkibida tamoman boshqa soʻzlardan iborat birlik bilan almashtirishdan iborat boʻladi. Bunda birikma mazmunidagi obrazlilik milliy xususiyatdan kelib chiqqan holda turlicha ifodalar bilan aks ettirilishi mumkin. Masalan “*What he said had a hateful truth in it, ... Roland for my Oliver*”²⁰ misolidagi “give me a Roland for my Oliver” frazeologizmining semantik ifodasi oʻzbek tilida “*U oʻzi bilmagan holda asl haqiqatni aytib yubordi. ... gapga chechan odamlar koʻproq yoqar edi*”²¹ shaklida oʻgirilib, unda frazeologizm maʼnosi “*gapga chechan*” birikmasiga toʻliq mos kelsada, birikmalarning struktural jihatlar va komponentlari bir-biriga mos emasligi koʻrinib turibdi.

Biroq oʻzbek tilida ham aynan ingliz tilidagi kabi atoqli otlardan iborat va semantik ifodasi ham yaqin boʻlgan “*Ali desa Vali demoq*” frazeologizmi ham mavjud boʻlib, komponentlariga koʻra koʻproq mos kelsada, tarjimon bu birikmadan foydalanmagan. Shunday boʻlsada, ushbu kontekst mazmunidagi “*teskari gapirmoq, qaysarlik qilmoq*” semalari mavjudligi aynan shu birikmaning toʻgʻri ekanini koʻrsatib turibdi. Shu sababli, bu oʻrinda analogik usul yordamida “*gapga chechan*” birikmasi bilan berilgan sema frazeologizmining emotsional-ekspressiv jihatlarini yetarlicha aks ettira olmaydi. Chunonchi, birikmaning oʻzbek tilida mos ekvivalenti yoʻqligi sababli kalkalash orqali “*Ronaldimga Oliver bermoq*” tarzidagi qilingan tarjimasi oʻquvchilar uchun tamoman tushunarsiz boʻlib qolar edi. Shunga koʻra, tarjimada birikma analogik variant asosida oʻgirilgan boʻlib, uning konseptual, ekspressiv va emotsional jihatlar ham toʻliq saqlanishiga erishilgan.

Izohlash orqali tarjima qilish yana bir samarali usul boʻlib, odatda frazeologizm mazmunidagi semantik ifodalarni leksik maʼno orqali erkin birikmalar yordamida oʻgirishdan iborat boʻladi. Bunda asosiy eʼtibor birikma mazmunidagi semani yoki milliy realiyalar tufayli yuzaga keluvchi muammolarni tushuntirish orqali aks ettirishga qaratilgan boʻlib, tarjima tilidagi maʼlum narsalarga qiyoslash yoki oʻxshatish asosida amalga oshiriladi. Bu usul ham tarjima tilida ekvivalent ham, analog variant ham mavjud boʻlmagan hollarda qoʻllaniladi. Masalan, *It had been done when he took silk and it represented him in a wig and gown. Even they could not make him imposing.*²² — *Он тогда только что стал королевским адвокатом...*²³ — *U oʻsha paytlarda endigina saroy advokati sifatida tayinlangan va ...*²⁴

Ushbu misoldagi “**took silk**” frazeologizmi leksik komponentlari semantikalarini asosida “shoyi kiyim kiyimoq” maʼnosini anglatsada, frazeologik maʼnodagisida koʻchma maʼno kasb etib, “*saroy lavozimga tayinlanmoq/saroy xodimiga aylanmoq*” semalarini aks ettiradi. Tarjima jarayonida uning oʻzbek tilidagi frazeologik varianti “*kimhob kiyimoq*” varianti mavjud boʻlishiga qaramay, bu ekvivalenti arxaik soʻzga aylanganligi sababli, uning maʼnosi izohlash orqali leksik usulda tarjima qilingan. Umumiy kontekst mazmunidan kelib chiqadigan

²⁰ Maugham W.S. The moon and sixpence / W. S. Maugham. — New York: Random House, 1919. — 314 p.

²¹ Moem U.S. Oy va sariq chaqa. — Toshkent: Yosh gvardiya, 1983. — 123 b.

²² Maugham W.S. The moon and sixpence / W. S. Maugham. — New York: Random House, 1919. — 314 p.

²³ Моэм У. С. Луна и грош. Роман / Сомерсет Моэм; пер. с англ. Н. Ман. — М.: Сов. радио, 1980. — 16 с.

²⁴ Moem U.S. Oy va sariq chaqa. — Toshkent: Yosh gvardiya, 1983. — 14 b.

bo'lsak, bu usul ancha muvaffaqiyatli chiqqanligini ko'rashimiz mumkin bo'ladi. Ingliz tilida metaforik ifoda asosida hosil qilingan FB mazmunida "shoyi/ipak kiyim kiyimoq" semasi diaxronik jihatdan aktual hisoblanadi va hozirda ham milliylikka xos realiya sifatida ahamiyatga ega bo'lib, aksariyat sud jarayonlarida sudya va advokatlar ipak matodan tikilgan mantiyalarda qatnashadilar.

FBlar tarjimasida qo'llaniladigan yana bir usul **leksik tarjima** bo'lib, original tilda frazeologik birlik orqali ifodalangan sema, odatda faqat so'zlar yordamida qayta reallashtiriladi. Biroq, bu holda frazeologizmlar mazmunidagi ekspressivlik va emotsionallik deyarli yo'qolib, tarjima tilidagi tushuncha yoki sema faqatgina voqea-hodisa yoki predmet haqida axborot beruvchi birlikka aylanadi. Masalan quyidagi misolda:

*-He'd be a bit surly sometimes, but when we hadn't had a bite since morning, and we hadn't even got the price of a lie down at the Chink's, he'd be as lively as a cricket.*²⁵ -... но, если у нас с утра до вечера маковой росинки во рту не бывало и нечем было заплатить китаезе за ночлег, он только смеивался.²⁶ -... ammo kun bo'yi tuz totmagan, xitoy qovoqxonasida ham tunashga sariq chaqamiz qolmaganida ham u tinmay **hazil-mutoyiba qilardi.**²⁷

